

**FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

SAID AHMAD ASARLARIDA AYOLLAR OBRAZINING O'RNI

*Aganiyazova Aziza, Osiyo xalqaro universiteti filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek) ta'lim yo'naliishi 1- bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Shoira Axmedova, f.f.d., professor*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning asarlarida ayollar obrazining ifodalanishi, talqin etilishi haqida fikr yuritiladi. Adibning "Muhabbat" hikoyasi tahlili orqali adibning ayollar obrazini yaratishdagi mahorati ham ochib beriladi.

Kalit so'zlar: obraz, talqin, xarakter, adib, Said Ahmad, o'zbek nasri roman.

Kirish. O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad o'zining rang-barang hikoyalari, realistik qissalari va romanlari, xushchaqchaq komediyalari bilan XX va XXI asr o'zbek adabiyotida munosib o'rin egallagan. Said Ahmad rang-barang janrdagi asarlari bilan xalqimiz ma'naviy dunyosini shakllantrishga samarali hissa qo'shgan adibdir. Uning asarlarida xalqimizning mardonavor mehnati, ona-zaminimizning go'zal manzarasi har doim ulug'landi, O'zbekiston Qahramoni Said Ahmadning hayoim va ijodi yosh avlod uchun namuna maktabidir. Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asarida Said Ahmadni ulug'ajdodlarimizning ilmiy merosi va ibratli faoliyatining bizning zamonamizdagi davomchisi ekanligini e'tirof etdi: "Gap shundaki, tariximizda bunday benazir siymolarning mavjudligi, takroran aytishga to'g'ri keladi, o'ziga xos bir fenomen, ya'ni o'ta noyob hodisadir. Bu esa nafaqat bugungi, ayni paytda ertangi avlodlarimizning ham ma'naviy boyligiga aylanib, xalqimizga hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydigan ruhiy kush-quvvat va madad berishi muqarrar"¹.

Qadim zamonlardan beri hamma davrlarda hamisha ayollar ardoqlanib kelingan. Biror bir ijod ahli yo'qli, ayolni ulug'lamagan, olqishlamagan bo'lsa! O'tmishda o'z baxti, ozodligi uchun kurashgan, mardligi va shijoati bilan o'limlarni yenggan dono ayollarimiz juda ko'p bo'lgan. Shuning uchun ularning nomi bir umrga xalqimiz tilida va dilida abadiy. Biz o'zbek ayollari jasoratlari To'marisning, suluv va jasur Barchinoyning, ishqu vafo timsoli Layli va Nodirabeginning, go'zal va dono Diloromning, tadbirdor Maysaraning,

¹. Каримов И А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008, 50-бет.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

shoirtabiat va malohatli Kumushbibining (sanayversak adog‘i yo‘q) avlodlarimiz, doim ulardan o‘rganib, ularga havas qilib, ergashib kelganmiz. Qutlug‘ diyorimiz mustaqillikka erishgan, ayol qadri ko‘tarilayotgan, ulug‘lanayotgan davrda ham shunday oqila, oljanob, sadoqatli, mehru vafo timsoli bo‘lgan ayollarimiz juda ko‘pligi bizning faxrimizdir. Ular hanuz qalam ahlining ijod taxtida malikalar bo‘lib kelayaptilar. Shu bois bunday ayollar haqida jo‘shib kuylamagan, ehtiros-la qalam tebratmagan ijodkor topilmaydi. Shunday ijodkorlar borki, ularning asarlarini o‘qisangiz, birorta ham salbiy ayol obraziga duch kelmaysiz. Shulardan biri, xalqimizning sevimli yozuvchisi Said Ahmaddir. O‘z asarlarida ayol zotiga hamisha bilan hurmat bilan qaraydigan adib ijodida xotin-qizlar obrazi mahorat bilan yaratilganini ko‘rish mumkinki, ular o‘rgansa arziyadigan sevimli qahramonlarga aylanib ketganligi hech kimga sir emas.

Davrimiz ayollari obrazini yaratish, ularning yuksak ma’naviy qiyofasini adabiy asarlar sahifasida jonlantirish Said Ahmad ijodida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Yozuvchi o‘zbek ayollarining ichki dunyosini ochish, uning jamiyat va oilada tutgan o‘rni mohiyatini yoritishga katta e’tibor beradiki, bu fazilat adibning hikoyalari va romanlarida ham yorqin namoyon bo‘lgan. “Bahor qizlari”dagi Shahlo, “Iqbol chiroqlari”dagi Iqbol, “Ko‘klam taronalari”dagi Saodat, “Mehribon”dagi o‘gay ona, “To‘lqinlar”dagi Jo‘raxon, “Cho‘l shamollari”dagi Kokila, xalqimizning sevimli romanlari qatoridan joy olgan “Ufq”dagi qator xotin-qizlar obrazi bu fikrimizga yorqin dalil bo‘la oladi.

Ma’lumki, hayotbaxsh kulgi Said Ahmadning barcha janrdagi asarlariga xos bo‘lib, u yaratgan obrazlar, voqeа-hodisalarga joziba baxsh etadi, asarlarining ruhiga, to‘qimasiga singib ketadi. Mana shu ezgu, samimiy kulgiga yo‘g‘rilgan satrlar, qahramonlar, ularning hayoti kitobxon qalbida bir umrga qoladi. Yozuvchi ayollar obrazini ham ana shunday ko‘tarinki ruhda, ulardagи mexnatsevarlik, hayo, iffat, halollik, vafo-sadoqat, mehr-muruvvat, sabr-toqat, bolajonlik kabi o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan insoniy xususiyatlarni o‘ziga xos ohangda, ba’zan yumorga boy lavhalarda tasvirlaydi, samimiy humor bilan ularni olqishlaydi. Fikrimizni “Ufq” trilogiyasidagi Asrora obrazi yaqqol tasdiqlaydi.

Said Ahmad ko‘pincha o‘zining estetik idealini go‘zallik timsoli bo‘lgan ayollar obrazi orqali ifodalashga intiladi, shuning uchun bo‘lsa kerak, agar etibor bersangiz, uning ijodida bag‘ri tosh, mehrdan yiroq ayollar tasviri kam uchraydi, deyarli topilmaydi.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

“Muhabbat” hikoyasini olib qarang. Yigit kishining ko‘ziga tik qarashga uyaladigan, o‘z muhabbatini aytishga ibo qiladigan sharm–hayoli o‘zbek qizi Lutfixonni kuzatar ekansiz, ko‘z oldingizga zukko tabiatli Kumushbibi, hozirjavob, so‘zamol Ra’no, go‘zal Shirin keladi. Ulardagi qaysidir fazilatlar Lutfixonda mujassamday. Hikoyadagi bu obrazga yozuvchi o‘zgacha bir mehr bilan yondashadi, undagi o‘zbek qizlariga xos fazilatlarni romanlarida yanada rivojlantiradi, “Ufq”dagi Lutfinisa adib hikoyalaridagi mana shunday obrazlarning davomchisiga aylangan.

Umuman olganda , ayol zotiga hamisha hurmatda bo‘lgan, o‘z hayoti orqali buni yana bir marta ko‘rsatgan Said Ahmad ijodida yaratilgan ayollar obrazining deyarli hammasi go‘zallik haqidagi tushunchani o‘zlarida tashib yuradilar. Shuning uchun adib asarlarida salbiy xususiyatli ayollarni topish qiyin. Said Ahmad yaratgan bunday qahramonlar “hayotiy quvvati hech qachon so‘nmaydigan yulduzdek shodon shu’la taratib turadi”lar.